foydalanuvchilarni targ‘ibot kampanialariga avtomatik ravishda jalb qilish xavfini kamaytirish uchun ijtimoiy tarmoqlar algoritmlarining shaffofligini kuchaytirish zarur.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, memlar va ramzlar zamonaviy dunyoda kuchli ta’sir quroli bo‘lib qolmoqda. Ularning turli madaniy va siyosiy kontekstlarga moslashib, jamoatchilik fikrini o‘zgartirish qobiliyati ularni o‘rganishga e’tiborli va ongli yondashuvni talab qiladi. Bu nafaqat manipulatsiya xavfini minimallashtirishga, balki globallashuv sharoitida madaniy va ma’naviy xilma-xillikni saqlashga yordam beradi.

Memlar va ramzlar global axborot ekotizimining eng muhim elementlariga aylanib borar ekan, ularning roli faqat ko‘ngilochar kontekst bilan cheklanmay, balki chuqur ma’naviy-siyosiy jarayonlarga ham ta’sir qiladi. Shu bilan bir qatorda, ushbu madaniy fenomenlar har doim ham neytral emasligini tushunish muhim bo‘lib, ular, ko‘pincha, jamoatchilik fikriga ta’sir qilish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan yashirin mafkuraviy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

Global axborot makoni va ijtimoiy media mem va ramzlarning tez tarqalishi uchun ideal sharoit yaratib, ularning virusli tarqalish qobiliyati bilan bog‘liqdir. Ma’lumotni tarqatish uchun katta resurslar va vaqt talab qiladigan an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan farqli ravishda, memlar qisqa fursatda dunyo bo‘ylab millionlab odamlarga yetib borishi mumkin. Ijtimoiy platformalarning algoritmlari bu jarayonni kuchaytirib, yorqin his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan kontentni namoyish etadi. Bu nafaqat tarqalish jarayonini tezlashtiradi, balki foydalanuvchilarni yanada ko‘proq jalb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). “Influence: The Psychology of Persuasion” by Robert B. Cialdini. Dec. 2006.

(2). “Trust Me, I’m Lying: Confessions of a Media Manipulator” by Ryan Holiday. July, 2013.

(3). Куйлиев Б.Т. Скрытные методы манипуляции в обществе: анализ применения в политике, рекламе и других сферах общественной жизни. Educational Research in Universal Sciences. 2023, т. 2, №.12, с. 57–62.

(4). Куйлиев Б. Сравнительный анализ технологий политико-психологического манипулирования. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 2023, т. 1, №.1, с. 107–115.

(5). Куйлиев Б.Т. Политическое манипулирование в системе понятий политической науки: анализ и вызовы //scholar. 2024, т. 2, №. 2, с. 183–189.

Axmedov Sherzodjon Zokirovich (O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi;
UDK: 373.316.7)

MILLIY QADRIYATLAR VA AXLOQIY QARASHLAR UYG‘UNLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy qadriyatlarning ma’naviy-axloqiy qarashlar bilan uyg‘unligi masalasi yoritilgan. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zamonida yoshlar faolligini ta’minlashning yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri ular ongida milliy urf-odat va an’analarni mustahkam shakllantirishdir. Pirovard maqsadimiz esa ma’naviy barkamol, komil insonni tarbiyalashdir.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, ma’rifat, komil inson, globallashuv, taraqqiyot, milliy qadriyat.*

Ахмедов Шерзод Зокирович (соискатель института повышения квалификации МВД Республики Узбекистан)

ГАРМОНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И НРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается совместимость национальных ценностей с духовно-этическими воззрениями. В современную эпоху социально-экономического развития одним из важных способов обеспечения активности молодежи является прочное формирование в ее сознании национальных обычаев и традиций. Наша основная цель – воспитать духовно зрелого и совершенного человека.*

Ключевые слова: *духовность, просвещение, совершенный человек, глобализация, развитие, национальная ценность.*

Akhmedov Sherzodjon Zokirovich (Researcher of the Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan)

HARMONY OF NATIONAL VALUES AND MORAL APPROACHES

Annotation. *This article discusses the compatibility of national values with spiritual and ethical views. In today's era of socio-economic development, one of the important ways of ensuring the youth's activity is the solid formation of national customs and traditions in their minds. Our primary goal is to educate a spiritually mature and perfect person.*

Key words: *spirituality, enlightenment, perfect person, globalization, development, national value.*

Kirish. Bugungi globallshgan jamiyatda axborot xuruji taraqqiyotimiz uchun xavfli bo‘lgan, yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, yoshlarni destruktiv ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladigan buzg‘unchi g‘oyalar keng targ‘ib qilinmoqda. Ma’naviyatning o‘zagi bo‘lgan milliy an’analar oila bag‘rida va mahalla ostonasida shakllanib ko‘p asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan urf-odat va qadriyatlar sifatida ularning ahamiyati bugungi kunda beqiyosdir. Shu bilan birga, bugungi bunday tahdidlardan o‘z vaqtida himoyalanish, unga qarshi javob bera olish uchun yuksak ma’naviyatli va ma’naviy barkamol yoshlar jamoasini shakllantirish davr talabiga aylanib bormoqda. Aynan shunday ma’naviy va mafkuraviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o‘z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o‘z fikri va mustaqil dunyoqarashiga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir.

Keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori, oilada, maktab va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning, an’analarning ustuvorligiga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g‘ayrat bag‘ishlamoqda [1].

Adabiyotlar tahlili va metod (materials and methods). Bugungi yosh avlodni o‘ziga xos bo‘lgan milliy urf-odatlar zanjiri bo‘lgan xayr-saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, bosiqlik, ulug‘vorlik va sabrlilik kabi ma’naviy fazilatlar mezonlari asosida tarbiyalash ularda mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik, bolajonlilik, oqko‘ngillilik va halol mehnat qilish kabi tuyg‘ularning shakllanishiga olib keladi. Shunday ekan, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o‘ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir.

Ma’naviyat inson tug‘ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar qadriyatlari ta’siri ostida shakllanadi. Uning shakllanishida oiladagi muhit, jamiyatdagi hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o‘rinni egallaydi. Ma’naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonnning xatti-harakatlarida, o‘z oilasi, millati va Vataniga bulgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Yuqorida aytganimizdek, uning shakllanishida ota-ona, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy qadriyatlar, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega [1].

Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot zamonida yoshlar faolligini ta’minlashning yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri ular ongida milliy urf-odat va an’analarni mustahkam shakllantirishdir. Zero, milliy urf-odatlar har bir xalq hayotining barcha sohalariga singib ketgan bo‘lib, xalqlarning milliy o‘zligini tarannum etuvchi dalildir.

Madaniy meros ham meros doirasiga kiradi, ammo undan biroz farq qiladi. O‘tmishdagi barcha madaniyat yodgorliklari meros sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularning hammasi ham madaniy qadriyatga ega bo‘lavermaydi. Madaniy merosda kishilikning kelgusi taraqqiyotiga, ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladigan, unga ijobiy ta’sir qiladigan qadriyat ahamiyatiga ega bo‘lgan tomonlar hisobga olinadi.

Ertangi oldimizdagi turgan eng ezgu maqsadlarimiz biri mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz uchun yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o‘rni bilan bog‘liqdir. Yoshlar tarbiyasiga bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, imonlilik, halollik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to‘g‘rilik va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish ularni vatan taqdiriga nisbatan mas’uliyatni his qiluvchi muayyan jamiyat vakili sifatida jamiyat vakili sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatimizning jahondagi nufuzini oshirishda mas’ullik tuyg‘ularini shakllantiradi.

O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singdiriladi. Shuning uchun til millatning ruhi sifatida e’tirof etiladi. Zero, buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oynayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”, deb tilga ta’rif bergan [3].

Ma’naviy-ma’rifiy barkamollikning qirralari va mezonlari qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Mustaqillik tafakkurini yoshlarda, shakllantirish nihoyatda zarur. Toki, mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g‘urur bo‘lmas ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlari jo‘sh urmaydi.

Mustaqillik tafakkuri keng qamrovli bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– Vatan istiqloli va istiqboli haqida qayg‘urish;

– xalqi, yurti qadr-qimmati, or-nomusini anglash va buni himoya qilish;

– butun mehnati, iste’dodi, imkoniyatini, zarur bo‘sa, jonini ham yurt istiqboli, xalq baxti uchun baxshida etish va boshqalardir [4].

Muhokama (discussion). Milliy qadriyatlarning asosi bo‘lgan ma’naviyat va madaniyat deganda, inson xulq-atvorining go‘zalligi, saxovatliligi, oliyjanobligi, va’dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag‘rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg‘uborligi, xushmuomalaligi va shu singari insoniy xislatlar tushuniladi.

Ma’naviy barkamollikning qirralaridan yana biri milliy iftixordir. Milliy g‘urur o‘z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an’analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma’naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e’zoz bilan munosabatda bo‘lish, avaylab-asrashdir. O‘z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, o‘z millatining istiqboli uchun qayg‘urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g‘urur ham, millat bilan faxirlanish ham, millatparvarlik ham bo‘lmaydi. Bunday kishilarni ma’naviy barkamol inson deya olmaymiz.

Ma’naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash vazifasi qanchalik murakkab bo‘lmasin, uni amalga oshirganimizdagina pirovard maqsadlarga erishish mumkin bo‘ladi.

Insonparvarlik bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U purma’no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o‘zbek xalqining ajralmas xislati tarzida ko‘zga tashlanadi. Insonparvarlik kishilarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr-shafqatida, diyonatda, o‘zaro ko‘maklashuvda, hamdardlikda, boshqalar qayg‘usiga sherik bo‘lib, quvonchidan va baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko‘rinadi.

O‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatlari o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib ularga do‘stlik, o‘rtoqlik, mehmondo‘stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o‘zini tuta bilish, hayolilik, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe’llik, mardlik, samimiylik, shirinso‘zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo‘ylik, halollik, oru-nomuslilik, to‘g‘rilik, rejalilik, poklik, sabr va andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g‘urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma’naviy-axloqiy fazilatlar kiradi [5].

Ma’naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta’siri xususida to‘xtalish, albatta, o‘rinlidir. Ma’lumki, azaldan o‘zbek mahallalari chinakkam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning holidan xabar olish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Mahallada keng jamoatchilik o‘rtasida g‘oyaviy-mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, har bir kishi qalbida milliy qadryatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, el-yurt sha’ni uchun kurash, o‘zaro yordam kabi fazilatldarni kamol topishida mahallaning o‘rni beqiyos.

Xulosa (conclusion). Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlar amaliy jihatdan keng ma’noda insonning barcha harakatlari, faoliyati, xulqi, odobi, insonlar bilan bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lsa, tor ma’noda odamlarning falsafiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy qarashlarida, tafakkuri, dunyoqarashlarida namoyon bo‘ladi. Bugungi barqaror taraqqiyotga erishish zamonida chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli insonni tarbiyalash, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglaydigan yurt manfaati uchun fidoyilik bilan kurasha oladigan shaxslarning etishib chiqishiga xizmat qiladi. Shundagina jamiyatimizda komil insonlarni shakllantirish borasida qo‘ygan maqsadimizga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон”, 2016, 146-бет.

(2). С.Отамуратов, Ж.Раматов, С.Хусанов. Маънавият асослари. Маърузалар матни, Тошкент, 2000, 31-бет.

(3). Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т., “Ўқитувчи”, 1992.

(4). Имомназаров М., Эшмуҳамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. Т., 2001, 97-бет.

(5). М.Фармонова. Қадриятлар–маънавий камолот асоси. Илмий-услубий қўлланма, Тошкент, “Tasvir” nashriyot uyi, 2019.